

DAVLAT VA NODAVLAT SUD EKSPERTIZA MUASSASALARIDA O'TKAZILGAN EKSPERTIZA TADQIQOTLARI NATIJALARI ASOSIDA XULOSA VA MUTAXASSIS FIKRLARNING YAGONA STANDARTGA KELTIRISH MASALALARI

Mansurov Oybek Olim o'gli

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi huzuridagi

Sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

Tel: +998 99 135 22 37

Elektron pochta: oybekoybek2237@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21918537>

Ushbu tezisda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan turli idoraviy tizimlardagi sud-ekspertiza muassasalari tomonidan beriladigan ekspert xulosalarining shakli va tuzilmasidagi tafovutlar tahlil qilinadi. Sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish sharoitida barcha davlat va nodavlat muassasalari uchun yagona xulosa standartini joriy etish zarurati asoslanadi.

Amaldagi tizimga ko'ra, O'zbekistonda sud ekspertizasi turli idoraviy davlat organlarida taqsimlangan holda o'tkazilib kelinmoqda jumladan bular Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining davlat sud ekspertiza muassasalari hamda ularning hududiy bo'linmalari shuningdek barcha nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari tomonidan xulosa va mutaxassis fikrlari berib kelinmoqda, Mazkur idoraviy taqsimlanish o'z-o'zidan qonuniy va maqsadga muvofiq bo'lsa-da, u bir muhim amaliy muammoni keltirib chiqaradi: har bir tizimda ekspert xulosasining shakli, tuzilmasi va majburiy rekvizitlari turlicha shakllangan. Masalan, sud-tibbiy ekspertiza xulosasining tuzilishi, unda qo'llaniladigan atamalar va bayon uslubi shuningdek X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining xulosasidan sezilarli farq qiladi davom etiradigan bo'lsak Ichki ishlar tizimidagi ekspertiza kriminalistika boshqarmasining chiqarayotgan xulosalari o'rtasida farqlar mavjud. Har bir muassasa o'z idoraviy normativ hujjatlari (nizom, yo'riqnoma) asosida ish yuritgani bois, xulosalar yagona andozaga ega emas, vaholanki sud ekspertiza faoliyatini nazorat qiladigan sud ekspertiza tog'risidagi qonun¹ barcha ekspertiza muassasalari uchun yagona hisoblanadi.

Amaldagi nizomga ko'ra, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida" 73 sonli nizomiga² muvofiq ekspertiza xulosasining tuzilishi davlat sud eksperti xulosasi uch qismdan: kirish, tadqiqot va xulosalar (yakunlovchi) qismlardan iborat bo'ladi. Sud eksperti xulosasining kirish qismida tadqiqot o'tkazilgan sana va joy, tartib raqami, uning huquqlari va majburiyatlarini unga tushuntirish va uning bilib turib noto'g'ri xulosa berganligi, ish materiallarini oshkor qilganligi, shuningdek uzrli sabablarsiz xulosa berishni rad etganligi yoki bundan bosh tortganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida tushuntirilganligi haqidagi tilxat olinganligi ko'rsatiladi.

Xulosaning kirish qismida sud ekspertizasini o'tkazish asoslari, ekspertiza o'tkazishni tayinlagan vakolatli organ (shaxs) yoxud advokat tadqiqotlarni o'tkazgan sud eksperti (sud

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni sud ekspertizasi to'g'risida <https://lex.uz/mact/-1633102>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida NAMUNAVIY NIZOM (Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qaroriga 1-ilova) <https://lex.uz/ru/docs/6388692>

ekspertlari), sud ekspertizasi hal etishi uchun qo'yilgan masalalar, tadqiqot o'tkazish uchun taqdim qilingan ish materiallari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, sud ekspertizasini o'tkazish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi. Sud eksperti xulosasining tadqiqot qismida sud eksperti oldiga qo'yilgan har bir masala bo'yicha tadqiqotlar jarayoni va uning natijalari yoziladi, aniqlangan faktlar bo'yicha ilmiy tushuntirish beriladi. Sud eksperti xulosasining yakunlovchi (xulosa) qismi sud eksperti oldiga qo'yilgan masalalarga javob shaklida bayon qilinadi va turli talqinlarga yo'l qo'ymaydigan aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi lozim. Agar xulosaning yakunlovchi (xulosa) qismini tadqiqot qismida bayon qilingan tadqiqot natijalarining mukammal tavsifisiz va qo'yilgan masalaga to'liq javobsiz shakllantirish mumkin bo'lmasa, xulosaning tadqiqot qismiga havola qilishga ruxsat beriladi. Sud eksperti xulosasida qoidabuzarlik sabablari va ularni sodir etishga imkon bergan sharoitlar, shuningdek, ularni bartaraf etishning tashkiliy-texnikaviy tavsiyalari ko'rsatilishi mumkin.

Shuningdek, mutaxassis fikri ham tuzilishi jihatdan xulosaga o'xshaydi, jumladan, Mutaxassis fikri uch qismdan: kirish, tadqiqot va fikr (yakunlovchi) qismlaridan iborat bo'ladi. Mutaxassis fikrining kirish qismida tadqiqot o'tkazilgan sana va joy, tadqiqot o'tkazishning asosi, tadqiqot buyurtmachisi (yuridik yoki jismoniy shaxs) to'g'risidagi ma'lumotlar, sud eksperti (famiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va tadqiqot o'tkazish topshirilgan davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar haqidagi ma'lumotlar, sud eksperti oldiga hal etish uchun qo'yilgan savollar, unga taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va ish materiallari qayd etiladi. Mutaxassis fikrining tadqiqot qismida sud eksperti oldiga qo'yilgan har bir masala bo'yicha tadqiqot o'tkazish jarayoni, qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tadqiqotlarning mazmuni va uning natijalari yoziladi, aniqlangan faktlar bo'yicha ilmiy tushuntirish beriladi. Mutaxassis fikrining fikr (yakunlovchi) qismida tadqiqot natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar qayd etiladi. Tadqiqot natijalarini tasvirlovchi ish materiallari mutaxassis fikrida aks ettiriladi yoki unga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Sud eksperti xulosasi va mutaxassis fikri ikki nusxada tuziladi, tadqiqotlarni o'tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari) tomonidan imzolanadi, uning (ularning) imzosi ekspertiza tashkiloti muhri bilan tasdiqlanadi, shundan keyin xulosa yoki mutaxassis fikrining bir nusxasi ekspertiza tashkiloti rahbari tomonidan ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ga, advokat, mutaxassis fikri esa tegishli jismoniy yoki yuridik shaxsga taqdim etilgan ish materiallari bilan birga yuboriladi, ikkinchi nusxasi esa ekspertiza tashkilotida 5-yil mobaynida saqlanadi. Agar sud eksperti xulosasida va mutaxassis fikrida tadqiqotlar va uning natijalarini tasvirlovchi fotojadvallar, diagrammalar, chizmalar va shu kabi ilovalar berilsa, ular ham sud eksperti (sud ekspertlari) tomonidan imzolanadi. Sud eksperti tadqiqotlarining borishi, sharoitlari va natijalarini hujjatlashtirish materiallari sud eksperti xulosasi nusxasi bilan birga ekspertiza tashkilotida saqlanadi. Bundan raqamli (elektron) ma'lumotlar mustasno. Ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs), advokat yoki tegishli jismoniy yoxud yuridik shaxsning talabiga ko'ra yig'majildga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, hozirda muammoning asosiy ildizi bu O'zbekistonda davlat sud-ekspertiza muassasalari yagona idoraga emas, balki bir necha vakolatli organ (Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mudofaa vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati) tizimiga bo'ysunadi. Har bir idora ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish

tartibini o'z idoraviy normativ hujjatlari nizom va yo'riqnomalar asosida mustaqil belgilaydi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda haqli ravishda ta'kidlanganidek, turli markaziy ijro organlariga bo'ysunuvchi muassasalar turli metodik yondashuvlarni qo'llaydi, bu esa ekspert tadqiqotlarida bir xil bo'lmagan natijalarga olib keladi; idoraviy normativ hujjatlarning ko'pligi va parallel amal qilishi huquqiy aniqlik prinsipiga zid kelib, sud-ekspertlik faoliyati uchun yagona, oldindan bashorat qilinadigan hamda izchil qo'llaniladigan standartni ta'minlashni imkonsiz qiladi³

Mazkur holat sud ekspertizasining eng muhim protsessual qadriyatlari ekspertning mustaqilligi, xulosaning xolisligi va obyektivligi kafolatlarini zaiflashtiradi. Holbuki, aynan shu kafolatlar davlat sud-ekspertiza muassasasi xulosasiga sud-tergov amaliyotida yuqori ishonch bildirilishining huquqiy-amaliy asosini tashkil etadi. Xulosaning xolisligi esa mavhum tushuncha bo'lmay, u bevosita insonning adolatli sudlanish huquqi bilan bog'liqdir: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida⁴ mustahkamlangan aybsizlik prezumpsiyasiga ko'ra, shaxsning aybi qonuniy tartibda, oshkora sud muhokamasida isbotlanishi shart, ekspert xulosasi esa ko'p hollarda ayni shu isbotlash jarayonining hal qiluvchi daliliy elementi hisoblanadi. Shu bois turli idoralarda shakllangan va turlicha rasmiylashtirilgan xulosalar ularning daliliy kuchini teng mezonda baholashni murakkablashtirib, pirovardida odil sudlovni ta'minlash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mualliflik taklifi. Yuqorida bayon etilgan idoraviy tarqoqlik muammosini hal etishning eng samarali yo'li barcha davlat sud-ekspertiza muassasalarini yagona, mustaqil va idoralararo bo'ysunuv organi tarkibiga birlashtirishdir. Amaldagi tartibda har bir muassasa o'zi joylashgan idoraning yuqori turuvchi organiga bo'ysunadi: ichki ishlar tizimidagi ekspertiza bo'linmalari Ichki ishlar vazirligiga, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari Sog'liqni saqlash vazirligiga, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi esa Adliya vazirligiga bo'ysunadi. Bunday tuzilmada ekspertiza natijasidan bevosita manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan organ (masalan, jinoyatni tergov qiluvchi idora) bilan ekspertizani o'tkazuvchi muassasa ayni bir idoraviy vertikal ichida joylashadi, bu esa ekspert mustaqilligiga tashkiliy bosim o'tkazish hamda manfaatlar to'qnashuvi uchun zamin yaratadi.

Shu munosabat bilan, muallif tomonidan barcha sud-ekspertiza muassasalarini ayblov, tergov va operativ-qidiruv funksiyalarini bajaruvchi idoralardan tashkiliy jihatdan ajratib, ularni yagona vakolatli organ tarkibiga o'tkazish taklif etiladi. Bunday organ sifatida quyidagi variantlardan biri ko'zda tutilishi mumkin: (1) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sud-ekspertiza qo'mitasi; (2) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat sud-ekspertiza agentligi (byurosi); yoxud (3) hech bir kuch tuzilmasi tarkibiga kirmaydigan, mustaqil maqomga ega Yagona davlat sud-ekspertiza xizmati. Mazkur organ zimmasiga sud-ekspertiza faoliyatini muvofiqlashtirish, ekspertlarni attestatsiya va sertifikatlash, yagona metodikalar reyestrini yuritish, ilmiy-metodik ta'minot hamda sifat nazorati funksiyalari yuklatiladi.

Yagona bo'ysunuv modelining afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, ekspertiza tadqiqotini o'tkazuvchi muassasa ish natijasidan manfaatdor idoraviy vertikaldan chiqarilishi ekspert mustaqilligini institutsional darajada mustahkamlaydi va manfaatlar to'qnashuvi hamda korrupsiyaviy ta'sir xatarlarini sezilarli kamaytiradi; ikkinchidan, barcha

³ Transformation of public administration in the sphere of forensic science activity in Ukraine under martial law Nataliia Martynenko <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2589871X26000501>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>

muassasalar yagona metodik va normativ asosda faoliyat yuritishi ekspert xulosalarining shakli, tuzilmasi va sifatini yagonalashtiradi; uchinchidan, bu model xalqaro tajribaga ham mos keladi qator davlatlarda sud-ekspertlik xizmati huquqni muhofaza qiluvchi organlardan ajratilgan, mustaqil tizim sifatida shakllantirilgan. Pirovard natijada mazkur yechim ekspert xulosalarining xolisligi, obyektivligi va daliliy kuchini oshirib, sud-tergov organlari hamda fuqarolarning sud ekspertizasi tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 08.09.2025 yildagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” qaroriga muvofiq quyidagi ishlar asosiy maqsadi etib belgilandi sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali tadqiqotlarning tezkorligi, xolisligi va to'liqligini ta'minlash; sud-ekspertiza tashkilotlari va ekspertiza tayinlovchi organlarning axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali sohada elektron hujjatlar almashinuvi hajmini 100 foizga yetkazish.

Ushbu qonunga muvofiq sudlar, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar (keyingi o'rinlarda ekspertiza tayinlovchi organlar) bilan elektron hujjatlar almashinuvini ta'minlashga mo'ljallangan “E-ekspertiza” elektron axborot tizimini (keyingi o'rinlarda “E-ekspertiza” platformasi) sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatiga to'liq joriy etish.

Platformaga ulanish majburiy qilingan tashkilotlar: Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining davlat sud ekspertiza muassasalari hamda ularning hududiy bo'linmalari shuningdek barcha nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari hisoblanadi.

Yuqoridagi Prezident qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida 20.02.2026 yildagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 74-sonli “Sud ekspertizasini o'tkazishda elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini tashkil etish tartibi ” to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori qabul qilindi⁵.

Ushbu qonun quyidagilarni nazarda tutuvchi sud ekspertizasini o'tkazishda elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq tasdiqlandi: elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini tashkil etish; sud ekspertizasini tayinlash va ish materiallarini yuborish; elektron axborot tizimlari orqali so'rovlarni qabul qilish va tadqiqotlarni o'tkazish; elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar aylanishi tartibi va muddatlari; ekspertiza tadqiqotlari yakuniga ko'ra xulosa tayyorlash va uni elektron axborot tizimlari orqali yuborish tartibi.

Sohadagi izchil islohotlar natijasida jismoniy va yuridik shaxslarning sud ekspertiza tizimiga ishonchi mustahkamlanib bormoqda. Jinoyatni tergov qilish va sud muhokamasi jarayonida ish uchun muhim bo'lgan holatlarni aniqlashda fan, texnika, san'at yoki kasb sohasidagi maxsus bilimlarni qo'llagan holda tadqiqot o'tkazish va tegishli ma'lumotlar olish zarurati tug'iladi. Shu bois sud ekspertizasining nazariy asoslarini bilish faqat ilmiy tadqiqotchilar uchungina emas, balki ekspert muassasalari xodimlari, dastlabki tergov organlari va advokatlar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2025 yildagi PQ-270-son <https://lex.uz/uz/docs/-7717938> sayti.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni sud ekspertizasi to'g'risida <https://lex.uz/mact/-1633102>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida NAMUNAVIY NIZOM (Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qaroriga 1-ilova) <https://lex.uz/ru/docs/6388692>
3. Transformation of public administration in the sphere of forensic science activity in Ukraine under martial law Nataliia Martynenko <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2589871X26000501>
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2025 yildagi PQ-270-son <https://lex.uz/uz/docs/-7717938> sayti.